

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA MENEJMENT**  
**UNIVERSITETI**

**IJTIMOIIY-GUMANITAR**  
**FANLARNI O‘QITISHNING**  
**DOLZARB MASALALARI:**  
**MUAMMO VA YECHIMLAR**

**Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami**

**II QISM**

**Qarshi-2025**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 490-sonli buyrug‘ining ijrosini ta’minlash maqsadida Axborot texnologiyalari va menejment universitetida 2025-yil 24-25-oktyabr kunlari tashkil etilgan “Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishning dolzarb masalalari: muammo va yechimlar” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to‘plamida Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishda raqamli transformatsiya va sun’iy intellektdan foydalanish, raqamli jamiyatda zamonaviy o‘qitish texnologiyalaridan foydalanishning istiqbollari, uzluksiz ta’limda inkluziv ta’lim tizimini takomillashtirish tendensiyalari, tarixiy, falsafiy va psixologik muammolarni hal qilishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning ahamiyati, shuningdek, tilshunoslikning zamonaviy muammolari va ularning yechimlari, milliy va xalqaro tajribalar, ularni o‘qitishdagi dolzarb muammolar va ularning samarali yechimlarini o‘rganishga bag‘ishlanadi. Anjumanda sun’iy intellekt tizimlari asoslari, gumanitar fanlarni o‘rgatishda raqamli vositalardan foydalanish tajribalari, ilg‘or pedagogik texnologiyalar va ularni ta’lim jarayoniga integratsiyalash, Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish sohasida bajarilayotgan fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish, samarali ishlanmalarni amaliyotga tadbqiq etish uchun tavsiyalar ishlab chiqildi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishning dolzarb jihatlari, sohada xizmatlarni xalqaro talablar doirasida olib borish, mazkur sohalarga innovatsiya texnologiyalarini va ilmiy-texnikaviy ishlanmalarni joriy etish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqishda tahliliy mulohazalar bildirilgan.

Ushbu to‘plamning chop etilishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasining ilm-fan sohasidagi farmonlari, qarorlari ijrosini amalga oshirishga bag‘ishlangan.

Taqdim etilayotgan to‘plam ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy ta’lim muassasalari, axborot texnologiyalari sohasi mutaxassislari hamda amaliyotchi pedagog mutaxassislar hamda keng jamoatchilikka mo‘ljallangan.

**Bosh muharrir:** Z.U.Sunnatov-Axborot texnologiyalari va menejment universiteti rektori.  
**Bosh muharrir o‘ribosari:** A.H.Berdiyev-Axborot texnologiyalari va menejment universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor  
**Mas’ul muharrir:** M.X. Allanazorov – “Pedagogika” kafedrasi mudiri  
**Texnik muharrir:** D.Shaxmuradova–“Pedagogika” kafedrasi dotsenti

**Tahririyat hay’ati a’zolari:**

G‘. Berdiyev – Ilmiy bo‘lim boshlig‘i  
J. Ibragimov – “Filologiya” kafedrasi mudiri  
G‘. Karomov – “Tarix” kafedrasi mudiri  
K. Xolov – “Matematika” kafedrasi mudiri  
A. Aliqulov – “Iqtisodiyot” kafedrasi mudiri  
A. Rustamov – “Axborot texnologiyalari” kafedrasi mudiri  
X. Nomozov – “Tarix” kafedrasi dotsenti  
T. Ergashev – “Filologiya” kafedrasi o‘qituvchisi  
L.Berdiyeva – “Pedagogika” kafedrasi katta o‘qituvchisi  
G.Xolmatova – “Pedagogika” kafedrasi katta o‘qituvchisi  
M.Uzoqova – “Pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi  
M.Ergasheva – “Pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi

Mazkur to‘plam Axborot texnologiyalari va menejment universiteti Kengashining 2025-yil 18-oktyabrda navbatdan tashqari 3-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilindi.

To‘plamga kiritilgan ma’lumotlar to‘g‘riligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

©Axborot texnologiyalari va menejment universiteti 2025-yil

5. Malikov, T. (2019). *Moliya: nazariya, amaliyot va rivojlanish istiqbollari*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
6. OECD. (2022). *Digital Government Index 2022: Enhancing Public Sector Innovation*. Parij: OECD Publishing.
7. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Statistika agentligi ma’lumotlari (2023–2024-yillar).
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-avgustdagi PQ–5197-son Qarori “Ijtimoiy himoya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-dekabrda PF–269-son Farmoni “2022–2026-yillarda ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”.
10. Qodirov, N. va Abduqahhorov, A. (2022). *Ijtimoiy himoya va raqamli boshqaruv mexanizmlari*. Toshkent: Iqtisodiyot va innovatsiyalar nashriyoti.
11. Statistika agentligi. (2024). *O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy soha ko‘rsatkichlari*. Toshkent: Statistika agentligi nashriyoti.
12. United Nations. (2022). *E-Government Survey: The Future of Digital Public Services*. Nyu-York: Birlashgan Millatlar Tashkiloti.
13. Vahobov, A.V., Umurzakov, B. va Raxmonov, D. (2021). *Ijtimoiy himoya tizimining moliyaviy mexanizmlari*. Toshkent: Moliyanashriyoti.

## **HUDUDLARNI IQTISODIY BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA TURIZM VA ASALARICHILIK SOHALARINI INTEGRATSIYALASHNING AHAMIYATI**

*Uzaqov Jamshid Norboyevich*

*Axborot texnologiyalari va menejment universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti*

*Qulmurotov Sohijon Jumaniyozovich*

*Qarshi davlat texnika universiteti “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasi katta o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada turizm va asalarichilik sohalarining o‘zaro integratsiyasi orqali hududlarning iqtisodiy barqarorligini ta’minlash imkoniyatlari keng tahlil qilingan. Asalarichilikni turizm faoliyati bilan uyg‘unlashtirish nafaqat ekologik muvozanatni saqlash, balki mahalliy aholining daromad manbalarini diversifikatsiya qilish, yangi ish o‘rinlari yaratish va hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishda muhim omil sifatida qaraladi. Shuningdek, ushbu integratsion yondashuv barqaror iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda qishloq joylarda yashovchi aholining turmush darajasini yaxshilash imkonini beradi.

**Kalit so‘zlar:** raqamli transformatsiya, raqamli texnologiyalar, raqamlashtirish, sanoat korxonalari, yashil iqtisodiyot, yashil transformatsiya, ekologiya, ekologik barqarorlik, ekologik muammolar.

**Kirish.** Hozirgi davrda global urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi, tabiiy resurslardan ortiqcha foydalanish hamda ekologik nomutanosiblik sharoitida barqaror iqtisodiy o‘shishni ta’minlash masalasi jahon miqyosida eng dolzarb yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining barqaror rivojlanish maqsadlariga (SDGs, 2015) ko‘ra, iqtisodiy o‘shish ekologik muvozanat va ijtimoiy farovonlik bilan uzviy uyg‘unlikda amalga oshirilishi zarur[1]. Qishloq xo‘jaligi va turizm tarmoqlari iqtisodiyotning eng faol hamda istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ular hududlarning iqtisodiy barqarorligini ta’minlash, aholi bandligini oshirish va ekologik muhitni muhofaza etishda muhim o‘rin tutadi.

Shu nuqtai nazardan, turizm va asalarichilik sohalarining integratsiyasi – ya’ni “turizm” va “asalarichilik turizmi” yo‘nalishlarini kompleks rivojlantirish – ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashning innovatsion mexanizmlaridan biri sifatida qaraladi.

Mazkur integratsion model mahalliy tabiiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish, ekologik madaniyatni oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish, qishloq aholisining turmush darajasini yaxshilash hamda hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish imkonini beradi.

Natijada, turizm va asalarichilik uyg'unligi nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki ekologik muvozanatni mustahkamlash, biotizimlarni saqlab qolish, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish hamda hududiy barqaror rivojlanish konsepsiyasini amaliyotda ro'yobga chiqarish imkonini beradi. Bundan tashqari, ushbu yondashuv ekologik innovatsiyalarni rag'batlantirish, mahalliy brendlar va eksport salohiyatini oshirish orqali hududlarning xalqaro raqobatbardoshligini kuchaytirishga ham xizmat qiladi.

Hozirgi davrda turizm va asalarichilik tarmoqlarining integratsiyasi iqtisodiyotning istiqbolli o'sish nuqtalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Mazkur yondashuvning nazariy va amaliy poydevori qiymat zanjiri va klaster nazariyasi, ekotizim xizmatlari iqtisodiyoti hamda yashil iqtisodiyot va inklyuziv o'sish konsepsiyalarining kesishgan nuqtasida shakllanadi.

**Nazariy-metodologik asos:** Birinchidan, **qiymat zanjiri va klaster nazariyasi** tamoyillariga ko'ra, bir hududda o'zaro bog'liq tarmoqlarning konsentratsiyasi ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, xarajatlarni kamaytiradi hamda innovatsiyalarni rag'batlantiradi. M. Porter ta'kidlaganidek, klaster modeli raqobat ustunligini yaratishning muhim vositasidir, chunki u ishlab chiqaruvchilar, xizmat ko'rsatuvchilar va ta'lim-tadqiqot muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi. Shu nuqtai nazardan, turizm – **va asalarichilik turizm zanjiri** (asal va asal mahsulotlari → qayta ishlash → mehmondo'stlik → tajriba turizmi → marketing) o'zaro integratsiyalashgan holda faoliyat yuritganda, **sinergiya effekti** yuzaga keladi va bu jarayon hududiy iqtisodiy faollikni oshiradi [2].

Ikkinchidan, **ekotizim xizmatlari iqtisodiyoti** konsepsiyasi asalarilarning tabiiy muhitdagi faoliyati, xususan changlatish jarayoni orqali yaratiladigan iqtisodiy qiymatni asoslab beradi. Tadqiqotlar natijasida changlatish xizmatining global qiymati yiliga 200–500 milliard AQSh dollariga teng ekani aniqlangan[3]. Bu qiymat ko'pincha bozorda to'liq aks etmaydi, ammo u qishloq xo'jaligi hosildorligini oshiradi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda beqiyos ahamiyatga ega. **Asalarichilik turizm modeli** ushbu ekotizim xizmatini turizm faoliyati bilan uyg'unlashtirib, ekologik qiymatni iqtisodiy foydaga aylantirish imkonini beradi.

Uchinchidan, **yashil iqtisodiyot va inklyuziv o'sish nazariyasi** past uglerodli ishlab chiqarish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va barqaror bandlikni yaratish g'oyalariga tayanadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining atrof-muhit dasturi "yashil iqtisodiyot"ni inson farovonligini oshirish va ijtimoiy tenglikni ta'minlash bilan birga ekologik xatarlarni kamaytiruvchi iqtisodiy model sifatida ta'riflaydi[4]. Mazkur yondashuvda ayollar, yoshlar va kichik xo'jaliklarni iqtisodiy faoliyatga jalb etish orqali **ijtimoiy inklyuziya** ta'minlanadi, bu esa qishloq joylarda barqaror iqtisodiy o'sishning muhim omiliga aylanadi.

Shunday qilib, turizm va asalarichilikni integratsiyalash modeli nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki ekologik barqarorlikni mustahkamlash va ijtimoiy tenglikni ta'minlash orqali **hududiy raqobatbardoshlikni rivojlantiruvchi kompleks yondashuv** sifatida shakllanmoqda. Ushbu nazariy-metodologik asos mazkur yo'nalishning barqaror iqtisodiy rivojlanish strategiyasiga muvofiqligini isbotlaydi.

Turizm va asalarichilik sohalarini integratsiyalash natijasida ko'plab ijobiy iqtisodiy mexanizmlar yuzaga keladi. Avvalo, multiplikativ ta'sir orqali turistlarning xarajatlari (turar joy, transport, ovqatlanish, tajriba turlari) mahalliy xizmatlar zanjiriga ko'paytirilgan ta'sir ko'rsatadi. Asal va boshqa asalarichilik mahsulotlarini qayta ishlash (perga, propolis, mum, kosmetik vositalar) esa yangi daromad oqimini yaratadi. Diversifikatsiya va xatarlarni taqsimlash ham muhim: asalarichilikdagi mavsumiy daromadlar turizm oqimlari bilan muvozanatlanadi. Bahor–yoz mavsumida pasikalar faol ishlasa, kuz–qish oylarida asalarichilik turizm festivallari, ko'rgazmalar va tajriba turlari orqali daromad davom ettiriladi. Shu bilan

birga, birlashtirilgan mahsulot (tajriba + mahsulot) hududning investitsion jozibadorligini oshiradi va davlat-xususiy sheriklik loyihalari uchun kassaflov prognozini yaxshilaydi.

Umuman olganda, integratsiyalashgan turizm va asalarichilik turizm modeli hududiy iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlovchi, ekologik xizmatlarni moliyaviylashtiruvchi va ijtimoiy inklyuziyani rag'batlantiruvchi mexanizmdir. Uning muvaffaqiyati institutsional soddalashtirish, moliyaviy instrumentlarning puxta dizayni, raqamli ko'rinuvchanlik va bioxavfsizlik protokollarining qat'iy bajarilishiga bevosita bog'liqdir. Shu tariqa, ushbu yondashuvni amaliyotga tatbiq etish nafaqat mahalliy iqtisodiyotning mustahkamlanishiga, balki global ekologik va ijtimoiy muammolarni yumshatishga ham sezilarli hissa qo'shadi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, turizm va asalarichilik sohalarining integratsiyasi hududlarning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorligini ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Konseptual model va qiymat zanjiri tahlili, pilot hududlar bo'yicha empirik kuzatuvlar hamda ssenariy modellashtirish jumladan, input-output (kiritish–chiqarish) multiplikatorlari, farqlardagi farqlar (DiD) taqqoslashlari va sezgirlik tahlili asosida olingan dalillar metodlararo triangulyatsiya orqali tasdiqlanadi.

Iqtisodiy natijalar shuni ko'rsatadiki, turizm va asalarichilik sohalarining integratsiyasi amalga oshirish hududlarda uy xo'jaliklarining daromad manbalari diversifikatsiyalashgan, mavsumiy tebranishlar kamaygan va daromad barqarorligi oshiradi. Asalarichilik mahsulotlari asal, mum, propolis va boshqa hosilalar bilan bog'liq faoliyat turlari turizm xizmatlari, jumladan degustatsiya, ustaxona faoliyatlari va pasika safarlari bilan uyg'unlashganda, **mahalliy yalpi qo'shilgan qiymat (YYQQ)** o'sishiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Turizm va asalarichilik sohalarining integratsiyasi hududlarda daromad manbalarini diversifikatsiyalash, bandlik darajasini oshirish, xizmatlar sektorining ulushini kengaytirish hamda ekologik ko'rsatkichlarni bir vaqtning o'zida yaxshilash imkonini beradi. Bunday integratsiya modeli hududiy iqtisodiyotning kompleks rivojlanishiga, ayniqsa qishloq joylarda yashovchi aholining iqtisodiy faolligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Klaster yondashuvi, raqamli integratsiya, standartlashtirish va maqsadli moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarining uyg'un qo'llanishi natijalarning uzoq muddatli va barqaror shakllanishini ta'minlaydi. Bu jarayon investitsiya oqimlarini jalb etish, innovatsion faoliyatni kengaytirish va mahalliy brendlarni rivojlantirish uchun ham qulay shart-sharoit yaratadi.

#### **Xulosa va takliflar**

Turizm va asalarichilik sohalarining integratsiyasi hududlarda iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik barqarorlikni ta'minlashning samarali mexanizmlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu model nafaqat daromad manbalarini diversifikatsiya qilish, balki mavsumiy tebranishlarni kamaytirish, uy xo'jaliklari daromadining barqarorligini mustahkamlash va mahalliy iqtisodiyotning o'sishiga turtki berish imkonini yaratadi. Ekotizim xizmatlari iqtisodiyoti konsepsiyasi nuqtai nazaridan qaraganda, asalarilarning changlatish faoliyati ekologik qiymatni iqtisodiy foydaga aylantiruvchi tabiiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Buning natijasida bioxilma-xillik saqlanadi, ekologik muvozanat tiklanadi va oziq-ovqat xavfsizligi mustahkamlanadi.

Yashil iqtisodiyot va inklyuziv o'sish tamoyillariga asoslangan ushbu yondashuv ayollar hamda yoshlarning iqtisodiy faolligini oshiradi, ijtimoiy tenglikni mustahkamlaydi va mahalliy aholining turmush darajasini yaxshilaydi. Shu tariqa, turizm va asalarichilik integratsiyasi nafaqat iqtisodiy o'sish, balki ekologik xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikni ham birgalikda ta'minlaydigan kompleks tizim sifatida shakllanadi.

**Turizm maskanlarida asalarichilik faoliyatini yo'lga qo'yish orqali** daromad manbalari diversifikatsiyalanadi, mavsumiy tebranishlar kamayadi, xizmatlar ko'lami kengayadi, mahalliy brendlar shakllanadi hamda ekologik muvozanat mustahkamlanadi.

✓ Turistik komplekslar (mehmonxona, dam olish maskani, eko-lodj) hududida kichik asalarichilik faoliyatlarini tashkil etish;

- ✓ Har bir yirik turizm maskanida (masalan, Shahrisabz, Samarqand, Buxoro, Kitob) “Asalarilar dunyosi” interaktiv markazini yaratish;
- ✓ Turizm maskanlarida asalarichilik faoliyatini boshlovchilar uchun yer maydonlarini ajratish va 3 yilgacha soliq yengilliklari joriy etish;
- ✓ “Asal brendi” ostida mahalliy turizm maskanlarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni (asal, mum, kosmetika, sovun) sotish;
- ✓ Har yili turizm maskanlarida “Asal festivali”ni o‘tkazish (degustatsiya, musobaqalar, seminarlar).

Turizm maskanlarida asalarichilik faoliyatini integratsiya qilish – bu iqtisodiy samaradorlik, ekologik muvozanat va ijtimoiy farovonlikni uyg‘unlashtiruvchi **innovatsion yondashuv**dir.

#### **Adabiyotlar:**

1. United Nations (2015). *Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development*. United Nations General Assembly Resolution A/RES/70/1.
2. Porter, M. E. (1998). *Clusters and the New Economics of Competition*. Harvard Business Review, 76(6), 77–90.
3. Gallai, N., Salles, J. M., Settele, J., & Vaissière, B. E. (2023). *Economic valuation of the vulnerability of world agriculture confronted with pollinator decline*. Ecological Economics, 68(3), 810–821.
4. United Nations Environment Programme (UNEP). (2011). *Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication*. Nairobi.
5. Qulmurotov S.J. - Journal of international scientific. [Ayollartadbirkorliginirivojlantirishorqali qishloq hududlarida ish o‘rinlari yaratish](#). 2024.
6. Qulmurotov S.J. - Respublika bank tizimlarida bankomatlardan kreditlar olish: imkoniyatlari, muammolari va yechimlari. “Top izlanuvchi - 2025” Ilmiy va ijodiy ishlar tanlovi. 2025
7. Qulmurotov S.J. Asalarichilik faoliyatini yuritishda yetuk soha mutaxassislarning roli. Xorazm ma’mun akademiyasi axborotnomasi. -9/2-2024. UO‘K 338.436.2, 2024-yil.
8. [ASALARICHILIK TURIZMINI AMALGA OSHIRISH ORQALI ASALARICHILIK FAOLIYATINI TANITISH, MAHALLIY ASALARICHILIK MAHSULOTLARINI SOTISH VA EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI](#). QS Jumaniyozovich - ... NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G ' ... , 2024
9. [MINTAQADA ZIYORAT TURIZM SALOHIYATINI OSHIRISH MEXANIZMINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI](#). JN Uzaqov, KS Jumanazarov - CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF ... , 2024

### **BANKLARNING PUL OQIMI BARQARORLIGINI BAHOLASH USLUBIYOTLARI**

***Normamatov Ixtiyor Bahtiyorovich***

*Axborot texnologiyalari va menejment universiteti, prof. v/b.,i.f.d (DSc)*

[normamatovixtiyor@gmail.com](mailto:normamatovixtiyor@gmail.com)

***Nabiev Farrux Safarovich***

*Axborot texnologiyalari va menejment universiteti assistenti*

[farruxnabiyev@gmail.com](mailto:farruxnabiyev@gmail.com)

**Annotasiya:** Ushbu maqolada banklarning pul oqimi barqarorligini baholashning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Mazkur maqolada banklarning pul oqimi barqarorligini baholashning nazariy asoslari va amaliy yondashuvlari keng tahlil qilingan. Pul oqimlarining shakllanish manbalari, ularning samarali boshqarilishi va taqsimlanishi bankning moliyaviy

**MUNDARIJA**

<i>№</i>	<i>Muallif</i>	<i>Maqola nomi</i>	<i>Bet</i>
<b>IV SHO‘BA: TARIXIY, FALSAFIY VA PSIXOLOGIK MUAMMOLARNI HAL QILISHDA IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING AHAMIYATI</b>			
1.	<i>Normatov Sh. Sayfiyev S. S.</i>	<i>Agrar ta’lim tizimi va mutaxassislar tayyorlashning asosiy yo‘nalishlari: qashqadaryo viloyati misolida (1991–2024 yillar)</i>	3
2.	<i>Niyazov S. S. Aslonova R. K.</i>	<i>Yoshlarda ekoestetik idealni shakllantirish tajribalari</i>	6
3.	<i>Kenjaev Z.</i>	<i>Ma’furaviy omillar” tushunchasi va uning yoshlar tafakkuriga ta’sirini tadqiq etishning ijtimoiy-falsafiy tahlili.</i>	9
4.	<i>Niyazov S. Saypilayeva G. S.</i>	<i>Badiiy adabiyotning shaxs ma’naviy qiyofasini o‘zgartirishdagi roli.</i>	14
5.	<i>Ruziyev A. E. Narzullayeva D. I.</i>	<i>Oiladagi sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhit tolerantlik tarbiyasi kafolati.</i>	16
6.	<i>Xudoyorova M. X.</i>	<i>Shaxsning ijtimoiy moslashuvi va psixologik muammolarini bartaraf etishda oilaviy baxt hamda ijtimoiy-gumanitar fanlarning integrativ ahamiyati.</i>	20
7.	<i>Ruziyev A. E., Eshquvvatova M. J.</i>	<i>Turizm mijoziga xizmat ko‘rsatishda ijtimoiy psixologik bilimlarning o‘rni</i>	23
8.	<i>Ro‘ziboyev D. A. Sayitova N. X.</i>	<i>Globalashuv davrida inson va texnika muammosi</i>	28
9.	<i>Karimov B. D. G‘aniyev Sh. Z.</i>	<i>Xorijiy olimlar asarlarida turk xoqonligi tarixining tavsifi</i>	32
10.	<i>Saidov B</i>	<i>O‘zbekiston hududidagi sayyidlar tarixi</i>	35
11.	<i>Максадова М.С</i>	<i>Профессионально-психологическая адаптация молодого педагога</i>	42
12.	<i>Jamolov D. B.</i>	<i>Milliy madaniyat: madaniy diffuziya oqibatida ham shakllana borishi.</i>	44
13.	<i>Maksadova M. S.</i>	<i>Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga xos kasbiy sifatlarni shakllantirishning psixologik xususiyatlari</i>	47
14.	<i>Turayev Y. Sh., Bobojonov I. R.</i>	<i>Ekologik va tibbiy-ijtimoiy omillarning o‘quvchilar somato-fiziologik rivojlanishiga ta’sirini tizimli o‘rganish: qarshi sharoiti misolida nazariy va amaliy tahlil.</i>	56
15.	<i>Maksadova M. S.</i>	<i>Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi kasbiy tayyorgarligining psixologik xususiyatlari</i>	58
16.	<i>Turayev Y. Sh. Zuvaytova D. K.</i>	<i>Talabalarning oliy ta’limdagi ijtimoiy-intelektual yuklamalarga fiziologik moslashuvi: qarshi sharoiti misolida psixofiziologik omillar va sog‘lomlashtiruvchi choralar tahlili</i>	63
17.	<i>Turayev Y. Sh., Saydullayeva D. G’.</i>	<i>Inson organizmidagi qarish jarayonlarini sekinlashtirish va hayot davomiyligini uzaytirishga qaratilgan fiziologik tadqiqotlarda tizimli yondashuvning nazariy asoslari va amaliy</i>	66

80.	<i>Xайруллоев А. Б. Boynazarova U.</i>	<i>Hududiy iqtisodiyotini rivojlantirish omillari</i>	324
81.	<i>Raxmatov A. I. Qlichov J. M.</i>	<i>Mintaqaviy turizm sohasini rivojlantirishda banklarning roli: rivojlangan davlatlar tajribasi va tahlili</i>	328
82.	<i>Samiyeva G. T.</i>	<i>Xorij tajribasi sosida ijtimoiy sohada transferlardan foydalanish</i>	331
83.	<i>Аликулов А.Т.</i>	<i>Тенденции развития рынка акций в странах с низким и средним уровнем доходов</i>	336
84.	<i>Alikulov A. T.</i>	<i>Aksiyalar bozorini tahlil qilishda buffet indekatoridan foydalanishning ahamiyati</i>	339
85.	<i>Xolmurodov O.N</i>	<i>Moliyaviy natijalar buxgalteriya hisobinimhxs asosida takomillashtirish</i>	342
86.	<i>Raxmatov A. I. Qlichov J. M.i</i>	<i>Raqamli moliya texnologiyalari va banklar: mintaqaviy turizm sohasida yangi investitsiya modellarini shakllantirish</i>	345
87.	<i>Aliyev M. K.</i>	<i>O'zbekistonda ijtimoiy nafaqalarni tayinlashning huquqiy asoslari.</i>	350
88.	<i>Aliyev M. K.</i>	<i>Aholini ijtimoiy himoyalashda innovatsion texnologiyalar ta'siri.</i>	354
89.	<i>Uzaqov J. N. Qulmurotov S.J.</i>	<i>Hududlarni iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda turizm va asalarichilik sohaslarini integratsiyalashning ahamiyati</i>	358
90.	<i>Normamatov I. B. Nabiev F. S.</i>	<i>Banklarning pul oqimi barqarorligini baholash uslubiyoqlar</i>	361
91.	<i>Turdiyev U. Q.</i>	<i>Mintaqaviy barqarorlikni o'lchash</i>	364
92.	<i>Aliyev M. K.</i>	<i>Estoniya ijtimoiy himoya tizimining zamonaviy modeli va uning raqamli transformatsiyasi</i>	367
93.	<i>Narmamatov I. B. Farmonov B. F.</i>	<i>Opportunities for innovative development of the payment system in new uzbekistan</i>	370
94.	<i>Ortiqov M. S. Qurbonova D.</i>	<i>Bank sohasida sun'iy intellektni qo'llashning zamonaviy metodlari</i>	374
95.	<i>Rustamov A. B. Hakimov N. Q.</i>	<i>Bank tizimida raqamli xavfsizlik risklarini ehtimollik asosida baholash muammolari va yechimlari</i>	377
96.	<i>Rahimova D. O. Mirzayorova H. U.</i>	<i>Ishlab chiqarish sifatini takomillashtirishning iqtisodiy jihatlari tahlil</i>	381
97.	<i>Rahimova D. O. Mirzayorova H. U.</i>	<i>Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida ishlab chiqarish sifatini takomillashtirishning o'rni</i>	384
98.	<i>Raximova D. O. Bahriddinova R. F.</i>	<i>Boshqaruv jarayonida sun'iy intellekt va raqamli transformatsiyaning imkoniyatlari, xavf-xatarlari va istiqbollari</i>	387
99.	<i>Narmamatov I. B. Xasanov Sh. X.</i>	<i>Innovatsiyalar asosida korxonalarini kreditlash amaliyotini takomillashtirishga oid ilmiy qarashlar</i>	391
100.	<i>Alikulov A. T. Baxtiyorov A.A.</i>	<i>Dividendlarni hisoblash tartibini takomillashtirish bo'yicha o'zbekistondagi islohotlar</i>	395
101.	<i>Uzaqov J. N. Yo'ldosheva F. F.</i>	<i>Davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlashning turizm sohasi rivojidagi ahamiyati</i>	398
102.	<i>Uzaqov J. N. Naimova Sh. G'.</i>	<i>Moliya va bank tizimini samarali boshqarishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati</i>	403

Musahhih: I. Tog‘ayev  
Texnik muharrir: K. Qudratova

Bosishga ruxsat etildi: 21.10.2025 y.  
Ofset qog‘oz. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/16.  
“Cambria” gar. Ofset bosma.  
Hisob nashriyot t.: 50,84.  
Adadi: 25 nusxa. Buyurtma №249

---

« ILM-FAN-MA’NAVIYAT » nashriyotida tayyorlandi.  
Qarshi sh, Bunyodkor MFY Mustaqillik ko‘chasi 10/28-30-uy  
Telefon 91-466-80-32.